

**PEDAGOGIKADA «TANQIDIY FIKRLASH» TUSHUNCHASI VA UNI
BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA SHAKLLANTIRISH
ZARURATI**

Saburov D.B.

Nukus davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

saburovdavronbek@mail.ru

Annotatsiya. Tanqidiy fikrlash insonda muammolarni aniqlash, har qanday manbadan olingan ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish, ularga baho berish, muqobillarni ilgari surish, muammoni hal qilish usullarini tanlash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu ishonch va harakatni boshqaruvchi kuzatish, tajriba, fikrlash, o'rganish yoki uyushma orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni konsepsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintezlash va baholashning intellektual va tartibli jarayonidir. Maqolada shu masalalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, muammoni yechish, faollik, intizomlilik, ishonch, tahlil, sintezlash.

Аннотация. Критическое мышление предполагает развитие у человека способности выявлять проблемы, анализировать и синтезировать информацию из любого источника, оценивать их, выдвигать альтернативы, выбирать методы решения проблемы. Это интеллектуальный и упорядоченный процесс концептуализации, применения, анализа, синтеза и оценки данных, собранных или генерируемых посредством наблюдения, опыта, мышления, обучения или ассоциации, которые управляют доверием и действием. В статье обсуждаются эти вопросы.

Ключевые слова: критическое мышление, решение проблем, активность, дисциплинированность, доверие, анализ, синтез.

Abstract. Critical thinking involves developing in a person the ability to identify problems, analyze and synthesize information from any source, evaluate them, propose alternatives, and choose methods for solving problems. It is an intellectual and ordered process of conceptualizing, applying, analyzing,

synthesizing, and evaluating data collected or generated through observation, experience, thinking, learning, or associations that govern trust and action. The article discusses these issues.

Keywords: *critical thinking, problem-solving, activity, discipline, trust, analysis, synthesis.*

Tanqidiy fikrlash faollik, maqsadga muvofiqlik, mustaqillik, intizomlilik va refleksivlik bilan tavsiflanadigan tafakkur turidir. U insonda muammolarni aniqlash, har qanday manbadan olingan ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish, ularga baho berish, muqobillarni ilgari surish, muammoni hal qilish usullarini tanlash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash ongli tanlovni amalga oshirishga, asosli yondashuvlar asosida harakat qilishga o'rgatadi. Bunday fikrlashga o'rgatishni o'quvchining fikrlash jarayonining o'z xususiyatlarini rivojlantirish bilan bir vaqtda qayd etilgan fikrlash ko'nikmalarining har birini bosqichma-bosqich shakllantirish sifatida tuzish mumkin.

Tanqidiy fikrlash haqida tadqiqotchi M.Jumayeva - bu oddiy gumonsirash emas, balki intellektual tartib, fikrlashdagi asoslilik va muammolarga kompleks yondashuvni o'z ichiga olgan tizimli tahlil faoliyati [1] sifatida baholaydi. Bizningcha, tanqidiy fikrlashni nafaqat salbiy yoki shubhali munosabat sifatida, balki muammolarni chuqur tahlil qilish, asosli xulosalar chiqarish va kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayon sifatida ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, ta'lim sohasida muhim, chunki o'quvchilarni nafaqat ma'lumotni qabul qilishga, balki uni tahlil qilishga va o'z xulosalarini asoslashga o'rgatish kerak.

Tanqidiy fikrlash - bu ishonch va harakatni boshqaruvchi kuzatish, tajriba, fikrlash, o'rganish yoki assotsiatsiya orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni konsepsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintezlash va baholashning intellektual va tartibli jarayonidir [2]. U tadqiqotlarida Muammoli ta'lim (PBL), Debatlar va muhokamalar, Kasbiy vaziyatlar (Case studies), Case study jarayoni eng samarali metodlar ekanligini ta'kidlagan. Biroq, insonda biror-bir vazifani hal

qilish, qaror qabul qilish, vaziyatni baholash yoki xulosa chiqarish zarurati bo'lganda tanqidiy fikrlash ustuvorlik qiladi, ya'ni bu fikrlash shakli asoslanganlik, nazorat va maqsadga yo'naltirilganlik kabi tamoyillar asosida quriladi.

Forobiy tanqidchilikni tashkil etish masalalari bo'yicha bir qator muhim takliflarni ishlab chiqqan [3]. Uning fikricha, yaxshi nazoratchi bo'lish uchun uch narsaga amal qilish zarur:

- ma'lum fanga asoslangan barcha tamoyillarni chuqur bilish zarur;
- bu fan doirasidagi tamoyillar va ma'lumotlardan xulosa chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lish, ya'ni tahlil qilish qoidalarini puxta egallash kerak;
- haqiqatni yolg'ondan ajratish, xatolarni tuzatish uchun noto'g'ri nazariyalarni rad etish va boshqa mualliflarning fikr-takliflarini tahlil qilish talab etiladi.

Shu o'rinda o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi haqida tadqiqotchi M.Maxammatova «Tanqidiy fikrlash kamchiliklarni tanqid qilishni emas, balki muammoni aniqlash va uni hal qilish uchun maqbul strategiyani ishlab chiqish qobiliyatini anglatadi. Ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini baholay oladi va uni tahlil qilish, xulosalarni asoslash bo'yicha tahliliy yondashuvlar tizimini shakllantirishga yordam berishi mumkinligini» ta'kidlagan[4]. Bizningcha, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida matnlarni o'qish va tahlil qilish orqali o'quvchilar muammoni aniqlashni o'rganishi, hikoyadagi qahramonning muammosini topish va uni hal qilish yo'llarini tahlil qilishga qaratish. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun darslarda guruhli muhokamalar, savol-javob usullari va rolli o'yinlarni qo'llash tavsiya etiladi, chunki bu o'quvchilarni faqat yodlashdan chiqib, o'z fikrlarini asoslashga o'rgatadi.

Tanqidiy fikrlashni o'rganish muammolarining eng mashhur muallifi, Garvard universiteti professori M.Skriven quyidagi ta'rifni taklif qiladi: «kuzatishlar, bog'lanishlar, ma'lumotlarni mohirona tahlil qilish va baholash, keyingi fikr va harakatlarga tegishli aniq dalillarni ilgari surish qobiliyati» [5]. Bu ta'rif tanqidiy fikrlashni faqat ma'lumotlarni passiv qabul qilish yoki shubhalanish bilan cheklanmaydigan, balki faol tahlil, baholash va asosli xulosalar chiqarish

jarayoni sifatida ko'rsatadi. Bu ta'limda, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darslarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mavzusida mustahkam nazariy asos vazifasini bajaradi.

M.Skrivenning ta'rifi kognitiv psixologiya va ta'lim nazariyalari (masalan, Blum taksonomiyasi) bilan mos keladi, chunki u tanqidiy tafakkurni tahlil, baholash va yaratish darajalari bilan bog'laydi. Bu ta'rif tanqidiy fikrlashning tartibli va tizimli tabiatiga e'tibor qaratib, uni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qo'llash mumkin bo'lgan umumiy qobiliyat sifatida ko'rsatadi. Uning «mahorat bilan tahlil» va «aniq dalillar»ga tayanishi o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bizningcha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili va o'qish savodxonligi darslarida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish nuqtai nazaridan - Skrivenning ta'rifiga asoslanib, quyidagi metodik yo'nalishda olib borish mumkin:

1) Ona tili darslarida: O'quvchilarga matnlarni tahlil qilish, muallifning asosiy fikrini aniqlash, dalillarni baholash topshiriqlari berilishi mumkin. Masalan, «Qahramonning qarori to'g'ri edimi? Nima uchun?» kabi savollar orqali o'quvchilar dalillarni shakllantirishga o'rgatiladi.

2) O'qish savodxonligida: O'quvchilar matndagi ma'lumotlarning ishonchliligini baholashga, masalan, «Bu ma'lumot qayerdan olingan? Uni qanday tekshirish mumkin?» kabi savollarga javob berishga yo'naltiriladi. Bu ma'lumotlarni diqqat bilan tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Guruhli muhokamalar, rolly o'yinlar, savol-javob usullari va muammoni yechishga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu usullar M.Skrivenning «aniq argumentlarni ilgari surish» talabiga mos keladi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan darslar yaratish metodikasi sohasidagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu jarayon ayrim qobiliyatlar, ko'nikmalar va yuksak psixik jarayonlarning butun

ro'yxatini o'z ichiga oladi, ular orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: xulosalarni tan olish, ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligini baholash, muhim va muhim bo'lmagan dalillarni ajrata bilish, kuchli va kuchsiz dalillarni ajrata bilish, faktlarni fikrlardan ajrata bilish va boshqalar. Agar bularning barchasini til o'rgatishga qo'llasak, unda bu qobiliyatlar uning yordamida qanday rivojlanishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'qishda xulosalarni tanib olish - bu tanqidiy o'qishga o'rgatishda shakllanadigan qobiliyat, notiqning xulosalarini tanib olish esa tanqidiy tinglashga o'rgatishdan boshqa narsa emas.

Adabiyotlar:

1. Jumayeva M.Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. - Toshkent, 2025. -B.11.
2. Mavlanova M.U. Tanqidiy fikrlash orqali bo'lajak muhandislarda muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. - Toshkent, 2025. -B.11.
3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. - T.: «O'qituvchi,» 1996.
4. Maxammatova M.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi (3-sinf ona tili va o'qish savodxonligi fani misolida). Falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. - Toshkent, 2024. -B.17.
5. Scriven, Michael (1997). «The methodology of evaluation» In Stake, R. E. Curriculum evaluation. Chicago: Rand McNally. Amerika ta'lim tadqiqotlari assotsiatsiyasi (baholash bo'yicha monografiya turkumi, no).